

O‘ZBEKISTONDA ZIYORATCHILAR UCHUN SHART-SHAROITLAR YARATISH

NUTFILLO SALIMOVICH IBRAGIMOV

Buxoro Davlat Universiteti, i.f.d., dotsent

<https://orcid.org/0000-0003-0937-2356>

XAYITOVA YULDUZ ERKINOVNA

**Buxoro Davlat Universiteti, Turizm(ziyorat turizm)mutaxassisligi
magistranti**

ФОРМИРОВАНИЕ УСЛОВИЙ ДЛЯ ПАЛОМНИКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

ИБРАГИМОВ НУТФИЛЛО САЛИМОВИЧ

Бухарский Государственный Университет, д.э.н

<https://orcid.org/0000-0003-0937-2356>

ХАЙИТОВА ЮЛДУЗ ЭРКИНОВНА

Бухарский Государственный Университет, магистрант

FORMATION OF AMENITIES FOR PILGRIMS IN UZBEKISTAN

NUTFILLO SALIMOVICH IBRAGIMOV

Bukhara State University, Dsc

<https://orcid.org/0000-0003-0937-2356>

KHAYITOVA YULDUZ ERKINOVNA

Bukhara State University, Masters student

Annotatsiya

Ziyorat turizmi, ba’zan diniy turizm deb ham ataluvchi turizm turi, garchi yangi fenomen deb qaralsada, aslida eng qadimiy turizm ko‘rinishlarida biri sifatida qaralishi mumkin va bunda turistlar – ziyoratchilar qalb sokinligi hamda diniy bilimlarini, tajribalarini oshirishni istashadi. Balki, aynan shu motivlar sababli ham ziyorat turizmi bugungi qizg‘in hayot ritmida keng ommaviylashib borayotgandir. Talab ortgani sari,

ziyorat turizmi nafaqat ilmiy, balki nazariy jihatdan ham chuqur tadqiq qilinmoqdaki, bularning barchasining tub mohiyati ziyoratchilarga aynan ular istagan, ular uchun lozim bo'lgan qulayliklar va shart-sharoitlarni yaratish, pirovarda esa hudud raqobatbardoshligini oshirib ko'proq daromad olish turadi. Buning uchun dunyo mamlakatlarida ko'plar ilmiy ishlar qilingan, muqaddas yerlar, ziyoratgohlar bo'ylab turli turlar ishlab chiqilgan va targ'ibot ham qilinmoqda. Biroq, O'zbekistonda garchi ko'plab diniy va ziyorat obyektlari bo'lishiga qaramay, hali unchalik keng targ'ib qilinmayapti va o'rganilmayapti. Faqatgina so'nggi yillarda davlat siyosati darajasiga olib chiqildi, bir qator farmon va qarorlar chiqarildi, ammo sayohatchi va ziyoratchilar uchun hamon yetarlicha sharoitlar yaratilgani yo'q. bundan tashqari, ziyoratgohlar to'g'risida, ilmiy, geografik ma'lumotlarning kamligi, ular uchun yana bir muammodir. Shu jihatdan kelib chiqib, ushbu ilmiy maqolada ziyorat turizmi, xususan ziyoratchilar uchun yurtimizda mavjud sharoitlar o'rganilib, 100 kishi o'rtasida hech bo'lmasa bir marta ziyoratga brogan aholi orasida so'rovnomma olib borildi va olingan javoblar tahlil qilinib, ular asosida ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar

Ziyorat, din, ziyoratchilar, ziyoratgohlar, infrastruktura, shart-sharoitlar, qulayliklar.

Аннотация:

Религиозный туризм, иногда называемый духовным туризмом, можно рассматривать как древнейшую форму туризма, в которой туристы-паломники ищут безмятежности и сакрального опыта. И благодаря этим мотивам религиозный туризм приобретает все большую популярность во всем мире. Несмотря на наличие большинства исторических и религиозных объектов, а также перспективных религиозных центров в различных уголках Узбекистана, религиозный туризм получает мало внимания со стороны исследователей и паломников. Лишь в последние годы Узбекистан стал уделять внимание местам паломничества на государственном уровне, однако условий для путешественников по-прежнему не хватает. Кроме того, нехватка рекламных материалов о святых местах создает дополнительные трудности для паломников в получении адекватной информации о святых местах. В настоящей статье мы хотим исследовать инфраструктуру, созданную для религиозного туризма. Было опрошено 100 респондентов, посетивших хотя бы один раз какие-либо религиозные объекты. Результаты используются для предложения по формированию и развитию удобств для паломников в Узбекистане.

Ключевые слова

Паломничество, духовный туризм, религиозный туризм, паломник, инфраструктура, условия, удобства.

Abstract

Religious tourism, sometimes called spiritual tourism can be considered as the oldest form of tourism in which the tourists – pilgrims search for serenity and sacred experience. And because of these motives religious tourism has been gaining an increasing popularity all over the world. Despite having a majority of the historical and religious sites, and promising faith centers in different parts of Uzbekistan, religious tourism receives little research attention. Only in recent years Uzbekistan started to give attention to pilgrimage sites on governmental scale, however there are still lack of facilities for travelers. In addition scarcity of promotion materials about holy sites, creates another difficulties for pilgrims to get adequate information about sacred places. The present paper wishes to investigate infrastructure created for religious tourism. 100 respondents who visited at least once to any religious sites was surveyed face to face. The results are used to give suggestion to form and develop amenities for pilgrims in Uzbekistan.

Keywords

Pilgrimage, spiritual tourism, religious tourism, pilgrim, infrastructure, amenities, conveniences.

Kirish

Bugungi shiddatli, tezkor zamonda insonlarning dam olishga bo'lgan ehtiyoji oshib bormoqdaki, inson turmush darajasining ortishi, daromadlarning ko'payishi ham ularning hordiq chiqarishlari uchun yana bir omil bo'lib xizmat qilmoqda. Va endilikda, shunday toifa turistlar shakllanib bormoqdaki, ular faqatgina tarixiy obidalarni tomosha qilish, dengiz bo'yida dam olib jismoniy hordiq chiqarishni emas, balki qalb va ko'ngil sokinligini istab sayohatga o'tlanmoqdalar. Va ularning asosiy maqsadi ziyorat sanaladi. Demakki, talab shakllangan ekan, ushbu kuchli raqobat maydonida shunga mos taklif ham paydo bo'la boshladi va bu – yangi turizm turi ya'ni ziyorat turizmining shakllanishiga olib keldi. Turli dunyo olimlari, tadqiqotchilar ushbu yangi fenomenni o'rganishar ekan, uni turli nomlar bilan atay boshlashdi, ziyorat, diniy, ruhiy turizm kabi. Qanday nom bilan atalmasin, maqsad yagona –

ziyoratchilar o'z hududlarida yoki boshqa mamlakatlarda ziyoratda bo'lishlari, diniy amallarini ado etishlari va diniy marosim, festival va bayramlarda ishtirok etishlaridir.

Dunyoning har bir nuqtasida albatta, muqaddas joylar, ziyoratgohlar borligi aniq. Ammo ularning hammasida ham tashrif buyuruvchilar uchun yetarlicha infrastruktura – yo'l, transport, ibodat qilish, ovqatlanish kabi elementar shart-sharoitlar, hamda turli din vakillari uchun lozim bo'lgan boshqa qulayliklar yaratilganligi dolzarb masala sanaladi. Bu masala aynan bizning yurtimiz O'zbekiston uchun ham alohida ahamiyat kasb etib, ziyorat turizmini rivojlantirish, ko'proq chet eldagi ziyoratchilarni yurtimizga jalb qilish uchun nafaqat targ'ibot, balki shart-sharoitlarning yaratilishi ham muhimdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ushbu maqolani yozish jarayonida chet el adabiyotlari o'rganilganda, asosan Hindistonning turli shtatlaridagi turli ibodatxona va ziyoratgohlar misolida o'rganilgan va ishlab chiqilgan tavsiyalar mualliflari ishlari tahlil qilindi. Misol uchun, K. D. Kamble va M.R.Erande Malganga ziyoratgohida turistlarning qoniqish indeksini o'rganib, maxsus formulalar yordamida turli sohalar bo'yicha qulayliklarni aniqlashtirgan.

Rafat Beigpoor Shahrivar ziyoratchilarning qoniqish hosil qilishi uchun ta'sir qiluvchi 8 omilni tahlillar asosida o'rganib, yakuniy natijalarga qarab yaratilishi lozim bo'lgan shart-sharoitlarni birma bir sanab keltirgan.

Biplab Roy esa diniy turizm ko'rsatkichlarini empirik tadqiq qilar ekan, Malaziya misolida, diniy turistik markaz yaratish uchun qator menejment, tashkiliy – amaliy tavsiyalarni ishlab chiqqan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu ilmiy maqolada ziyorat, ziyorat turizmi, ziyoratchilar hamda ular uchun yaratilgan sharoitlar va yaratilishi zarur bo'lgan qulayliklar borasida dunyo olimlarining ilmiy ishlari bilan bir qatorda, amalda mavjud ziyorat turizmi rivojlangan mamlakatlardagi real holat va shart-sharoitlar analiz sintez qilingan. O'zbekistonda ziyoratchilar uchun sharoitlarning yaratilganlik darajasi yuqoridagi ishlardan yig'ilgan natijalar bilan qiyoslangan.

Bundan tashqari, yurtimizda, xususan Buxoroda mavjud muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlarda tashrif buyuruvchilar uchun mavjud bo'lgan qulayliklar darajasi o'rganilib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tahlil va natijalar

Shart-sharoitlar bu – destinatsiyalarda u yerga tashrif buyuruvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun taklif qilinadigan barcha turdagi xizmatlardir. Bunda keng ko‘lamdagi xizmatlar, masalan savdo do‘konlari, restoranlar, transport va joylashtirish vositalari, hamda kasalxonalar nazarda tutiladi. Ko‘pchilik destinatsiyalarda ushbu qulayliklar nafaqat davlat, balki xususiy sektor vakillari tomonidan taklif qilinadi va boshqariladi.¹

Onionsning ta’kidlaganidek, “ziyosat - ziyoratchi ya’ni bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib yuruvchi sayohatchilar tomonidan amalga oshiriladigan safar bo‘lib, odatda uzoq masofalarga va muqaddas yerlarga Olloh yo‘lida tashrif buyurishlikni anglatadi”²

Fleischer va Nitzav xristian ziyoratchilarning turizm industriyasidagi diniy ehtiyojlarini inobatga oluvchi xulosalar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishgan.³ Shu kabi, Hoffman Yahudiy pravoslav turizm segmentining Isroil mehmondo‘stlik industriyasini tadqiq qiladi.⁴

Mansfeld Musulmon bo‘lgan tashrif buyuruvchilar uchun qishloq hududlarida emas, balki shaharlarda infrastrukturani rivojlantirishni tavsiya qiladi. Shuningdek, Mansfeld Isroil mehmondo‘stlik industriyasi uchun, musulmonlarning diniy ehtiyojlaridan kelib chiqib, aniq tavsiyalarni ishlab chiqqan.⁵ Ushbu tavsiyalarni quyidagi jadval asosida yoritishga qaror qildik:

1-jadval

Joylashtirish vositalarida musulmon ziyoratchilarga qulayliklar yaratish⁶

¹ Raju Kumar Gurung (2016). Marketing religious tourism destination. Bachelor’s thesis Central university of applied sciences.

² Onions, C.T. (1983). The shorter oxford dictionary on historical principles, 3rd edn. Book club associates with Oxford University press, Oxford, UK.

³ Fleischer, A. and Nitzav, Y. (1995). Christian Pilgrims - The Tourism Potential for Peripheral

⁴ Regions in Israel. Rehovot Israel: Center for Development Studies. Hoffman, M. (1994). Annual Survey of Tourists. The Israeli Ministry of Tourism

⁵ Mansfeld, Y., Ron, A. and Gev, D. (2000). Muslim Tourism to Israel – Characterization Trends and Potential. University of Haifa: Center for Tourism, Pilgrimage, and Recreation Research in Hebrew.

⁶ Mansfeld tavsiyalari asosida muallif ishlanmasi.

1	“Accomodation”	Musulmon turistlar va ziyoratchilar uchun ular tashrif buyuradigan obyektlarga yaqin hududlarda joylashtirish vositalarini yaratish lozim.
2	“Mecca stickers”	Xonalarda musulmonlar joylashadigan bo‘lsa, “Makka belgilari”ni joylashtirish. Ya’ni bu – qiblani ko‘rsatuvchi maxsus ko‘rsatkichlar bo‘lib, musulmon davlatlarda mehmonxonalarda odatiy holat sanaladi, biroq Isroil kabi mamlakat uchun bu noan‘naviydir, shu sababli, bunday belgilarni faqat musulmonlar joylashtirilgandagina qo‘yish tavsiya qilingan, boshqa din vakillari orasida tushunmovchiliklar kelib chiqmasligi uchun.
3	“Koran”	Muqaddas Qur’on kitobi nusxalarini xonalarda joylashtirish(bu ham faqatgina ehtiyoj bo‘lganda, boshqa holatda xuddi shunday Bibliyani ham qoldirish mumkin)
4	“Food”	Halollik standartlari asosida tayyorlangan oziq-ovqatlar bilan ta’minlash.

2016 yillar davomida ziyorat turizm adabiyotlarida siyosiy jihatdan mukammal boshqaruvning ta’sirini baholash uchun maxsus bir qator ilmiy ishlar qilingan. Jarayonning bir tekisda amalga oshirilishi uchun, tegishli hokimiyat organlari ziyorat turistlarining maxsus ehtiyojlarini qondirish maqsadida infrastruktura sharoitlarini ta’minlashlari lozim.⁷

Destinatsiyaning raqobatbardoshligi nafaqat uning yagona, o‘ziga xosliklariga, balki tarmoqli tashkiliy jihatlariga hamda hokimiyatning qanchalik hissa qo‘shganligiga bog‘liq⁸.

Infrastruktura sifati va diniy marosimlarni jozibador namoyish qila olish – mufavvaqiyatli ziyorat turizmning asosiy omillaridan biri sanaladi.⁹ Souvenir do‘konlari, kutubxonalar, dam olish joylari o‘sha joyning tarixi, madaniyati va arxitekturaviy qiymati to‘g‘risida tashrif buyuruvchilarga qimmatli

⁷ Štefko, R, Kirilov, A & Mudrık, M. (2015). Strategic Marketing Communication in Pilgrimage Tourism. *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, 175(1), 423 – 430.

⁸ Wiltshier, P, & Griffiths, M. (2016). Management Practices for the Development of Religious

Tourism Sacred Sites: Managing expectations through sacred and secular aims in site development; report, store and access. *International Journal of Religious Tourism and Pilgrimage*, 4(7), 1-8.

⁹ Tala, M. & Padurean, A. (2008). Dimensions of Religious Tourism. *Amfiteatru Economic*, 10(1), 242-253.

ma'lumotlarni yetkaza oladi.¹⁰ Xususan, Malodia va Singla yuqori infrastruktura hamda turistlar oqimining oshib borishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni Hindistonning Himalay hududi misolida o'rganishgan.¹¹

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili, ularda o'rganilgan muammolar va olib borilgan tadqiqotlar asosida ushbu maqolada mualliflar ham so'rovnoma tayyorlab, Buxorodagi ziyoratchilar orasida so'rovnoma yuzma-yuz ko'rinishida olib bordik. Ushbu so'rovnoma quyidagi ko'rinishga ega bo'lib, ziyoratchilar uchun eng asosiy shart-sharoitlarni qamrab olgan.

O'zbekistonda xususan Buxoroda Bahouddin Naqshband ziyoratgohida, mart oyi davomida O'zbekistonning boshqa viloyatlaridan kelgan ziyoratchilar orasida 110 kishi bilan anketa so'rovnomasi o'tkazildi. Unga ko'ra, eng asosiy shart-sharoitlardan 12tasi tanlab olindi hamda shu omillar bo'yicha ziyoratchilarning qoniqish darajasi aniqlandi.

2-jadval

Ziyoratchilarning shart-sharoitlardan qoniqish indeksi¹²

¹⁰ Božić, S, Spasojević, B, Vujičić, M.J, Stamenkovic, I. (2016). Exploring the Motives for Religious Travel by Applying the AHP Method: A case study of Vujan Monastery (Serbia). International Journal of Religious Tourism and Pilgrimage, Volume 4(4), 33-47

¹¹ Malodia, S. and Singla, H. (2017). Using HOLSAT to evaluate satisfaction of religious tourist at sacred destinations: the case of religious travelers visiting sacred destinations in the Himalayas, India. International Journal of Culture, Tourism and Hospitality Research, 11(2), 255-270. Margry, J. P. (Ed.) (2008). Shrines and pilgrimage in the modern world:

¹² Muallif ishlanmasi


T/r	QULAYLIKLAR	yuqori	yaxshi	qoniqarli	qoniqarsiz	Jami turistlar soni
1.	Avtoturargoh	52	32	15	11	110
2.	Mehmonxonalar(narx)	6	12	45	47	110
3.	Tabiiy manzara	52	42	16	0	110
4.	Ovqatlanish	42	18	38	12	110
5.	Xaridlar	56	38	10	6	110
6.	Transport tizimi	10	22	36	42	110
7.	Xavfsizlik	50	34	26	0	110
8.	Mahalliy aholi munosabati	49	39	20	2	110
9.	Xojatxonalar	26	52	29	3	110
10.	Tozalik	50	40	10	10	110
11.	Tanishtirish, targ'ibot	2	4	6	98	110
12.	Birinchi tez tibbiy yordam	8	11	32	59	110

Ushbu jadvaldagi raqamlar yanada tushunarli bo'lishi, taqqoslashlar orqali aniq xulosalar hosil qilish maqsadida bu natijalarni grafik jadval ko'rinishida tasvirlashga qaror qildik. Va ko'rib turganingizdek, keying grafikda qatnashchilarning javoblari ziyoratgohlarda yaratilgan shart-sharoitlardan qanchalik qoniqish hosil qilishini, qaysi yo'nalishda kamchiliklar mavjudligini yaqqol tasavvur qilish mumkin. Demak xulosalar quyidagicha(3-jadvalga qarang)

3-jadval

Ziyoratchilarning shart-sharoitlardan qoniqish ko'rsatkichlari¹³

¹³ Muallif ishlanmasi



Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, so‘rovnoma infrastrukturaning tarkibiy qismlari keltirilgan bo‘lib, ulardan ziyoratchilarning qoniqish darajasi to‘rt shkala bo‘yicha ya‘ni “yuqori”, “yaxshi”, “qoniqarli” va “qoniqarsiz” ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholangan. So‘rovnomada 110 ziyoratchi ishtirok etgan bo‘lib ular asosan “Yeti Pir”marshruti bo‘yicha ziyoratda bo‘lib, oxirgi nuqtada Bahouddin Naqshband majmuasida yuzma-yuz savollarga javob berishgan. Raqamlardan ko‘rinib turibdiki, yaratilgan sharoitlarga ziyoratchilar deyarli barchasiga yuqori yoki yaxshi deb baho berishgan.

Biroq tez tibbiy yordam, ziyoratgohlar orasida marshrut bo‘yicha qatnaydigan jamoat transport vositalarining deyarli mavjud emasligi, faqatgina yollanma transport vositalarida yoki shaxsiy avtotransport orqali ziyorat qilish mumkinligi qoniqarsiz deb topilgan. Sababi hammaning ham bunday imkoniyati mavjud emas.

Keyingi muammo, tanishtirish-targ‘ibot masalasi bo‘lib, afsuski bu borada ham kamchiliklar yetarlicha. Bunda eng avvalo, yagona xarita GPSning yaratilmaganligi, shu sababli boshqa viloyatlardan kelganlar adashib qolish xolatlari ko‘p bo‘lganini ta’kidlashgan. Shuningdek, informativ ma’lumotlar kamligi, broshular, QR kodlarning yo‘qligi, bo‘lsa ham eskirganligini aytish lozim.

Xulosa va takliflar

Tahlil va analizlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

O‘zbekistonda turizmni xususan, ziyorat turizmini rivojlantirish uchun amaliy va nazariy tadbirlar amalga oshirilayotgani sir emas, turli konferensiya va anjumanlar,

Prezident farmon qarorlari, shuningdek ziyoratgohlarni qayta rekonstruksiya qilish va obodonlashtirish shular jumlasidandir. Biroq amalda kuzatayotganimiz, hamda chet el ziyorat maskanlarida turistlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar taqqoslanganda, albatta amalga oshirilishi shart bo'lgan, yaratilishi lozim bo'lgan sharoitlarni yetarlicha sanash mumkin. Shu nuqta'i nazardan kelib chiqib quyidagi takliflarni keltiramiz:

1. Ziyoratgohlarning aniq xaritasini, marshrutini online va offline ko'rinishda ishlab chiqib, amaliyotga tadbiq etish;
2. Transport va yo'l masalasi og'riqli masala bo'lib qolmoqda. Shu sababli, shaharlararo transport qatovini qatnovini yaxshilash, aynan Buxoroda "Yetti Pir" ziyorat marshruti bo'ylab aniq grafik bo'yicha qatnovchi jamoat transportini shakllantirish
3. Yo'l bo'ylarida xojatxonalarni va taxoratxonalarni tashkillashtirish (hozirda faqatgina ziyoratgoh hududida yaxshi tashkil qilingan);
4. Masjidlarda nafaqat erkaklar, balki ayollarning namoz o'qishlari uchun ham shart-sharoitlarni yaratish;
5. Tibbiy yordam ko'rsatish punktlarini yaratish
6. Dindan, tarixdan maxsus bilimga ega bo'lgan, gid-tarjimonlar shtatini har bir ziyoratgoh hududida tashkil qilish.
7. Ziyoratgohlar hududida "Ona va bola"xonalarini tashkil qilish. Sababi bizda odatda oilaviy ziyoratga chiqishadi va ko'pchilik hollarda yosh bolali ayollar ham ziyorat davomida bola bilan to'xtab dam olib, bolaning ma'lum ehtiyojlarini qondirishlari lozim bo'ladi. Biroq afsuski, bolalar va onalar uchun bunday maxsus xonalar nazarda tutilmagan, tashkil ham qilinmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Božić, S, Spasojević, B, Vujičić, M.J, Stamenkovic, I. (2016). Exploring the Motives for Religious Travel by Applying the AHP Method: A case study of Vujan Monastery (Serbia). *International Journal of Religious Tourism and Pilgrimage*, Volume 4(4), 33-47
2. Corte, V.D., Sciarelli, M., Cascella, C., & Gaudio, G.D. (2015). Customer Satisfaction in Tourist Destination: The case of tourism offer in the city of Naples. *Journal of Investment and Management*, 39-50.
3. Diane, J., Natalie, S., & Hong, B. (2016). The impact of economic, social and environmental factors on trip satisfaction and the likelihood of visitors returning. *Tourism Management*, 1-18.
4. Fleischer, A. and Nitzav, Y. (1995). *Christian Pilgrims - The Tourism Potential for Peripheral*
5. Khuong, M., & Nguyen, P.A. (2017). Factors affecting Tourist Destination Satisfaction and Return Intention – A Study in Ho Chi Minh City, Vietnam. *Journal of Economics, Business and Management*, 5, 95-102.
6. Kotler, P. & Keller, K.L. 2012. *Marketing Management*. 14th Edition. Prentice Hall, New Jersey, United States of America: Pearson Education
7. Malodia, S. and Singla, H. (2017). Using HOLSAT to evaluate satisfaction of religious tourist at sacred destinations: the case of religious travelers visiting sacred destinations in the Himalayas, India. *International Journal of Culture, Tourism and Hospitality Research*, 11(2), 255-270. Margry, J. P. (Ed.) (2008). *Shrines and pilgrimage in the modern world*:
8. Mansfeld, Y., Ron, A. and Gev, D. (2000). *Muslim Tourism to Israel – Characterization Trends and Potential*. University of Haifa: Center for Tourism, Pilgrimage, and Recreation Research in Hebrew.
9. Murugan, A., “Challenges and changes in Indian Tourism”, *South Asian Journal of Social Sciences*, Vol.6, No.1, Dec.2005, pp 103-107.
10. Onions, C.T. (1983). *The shorter Oxford dictionary on historical principles*, 3rd edn. Book club associates with Oxford University press, Oxford, UK.
11. Patil V. J., Dhake, S.V., Bhole, R.V., & Ladhe, P.P. (2011). A Study of Cultural heritage Tourist Satisfaction-A Case Study Of Ajanta Caves. *Journal Of Research & Development*, I(2), 5-8.
12. Raju Kumar Gurung (2016). *Marketing religious tourism destination*. Bachelor's thesis Central university of applied sciences.
13. Regions in Israel. Rehovot Israel: Center for Development Studies. Hoffman, M. (1994). *Annual Survey of Tourists*. The Israeli Ministry of Tourism
14. Selvaratnam, C. “Tourist Perception Towards Amenities In Mariamman Temple Car Festival. A Study With Reference To Udumalpet”, *International Journal of Creative Research Thoughts (IJCRT)*, Vol.8, May 2020, pp 4-5.
15. Shahrivar, R. B. (2012). Factors That Influence Tourist Satisfaction. *Journal of Travel and Tourism Research*, 61-79.
16. Štefko, R, Kirilov, A & Mudrjak, M. (2015). Strategic Marketing Communication in Pilgrimage Tourism. *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, 175(1), 423 – 430.

17. Tala, M. & Padurean, A. (2008). Dimensions of Religious Tourism. *Amfiteatru Economic*, 10(1), 242-253.
18. Yanova, N. (2015). Assessment of Satisfaction with the Quality of Education: Customer Satisfaction Index. *Procedia – Social and Behavioral Sciences*, 566-573.
19. Wiltshier, P. & Griffiths, M. (2016). Management Practices for the Development of Religious Tourism Sacred Sites: Managing expectations through sacred and secular aims in site development; report, store and access. *International Journal of Religious Tourism and Pilgrimage*, 4(7), 1-8.
20. Adventure Thirdpole 2015. Lumbini. Available: <http://thirdpoletreks.com/lumbini#>. Accessed: 15 June 2015.

